

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

# 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

1 SENTYABR – MUSTAQILLIK KUNI

# 31

YOSHDA



# SENTYABR

# №44



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
1-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-1**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-1**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 44-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 30 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ**

<b>1. Asadov Eldorjon Nizomiddin o‘g‘li</b> NORMATIV-HUQUQIY HujjatlAR LOYIHALARINI EKSPERTIZADAN O‘TKAZISHNING NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI.....	7
<b>2. Shomurotov Ma‘ruf Abdusamat o‘g‘li</b> HUDUDIY PROKURATURA ORGANLARINING XALQ DEPUTATLARI MAHALLIY KENGASHLARI OLDIDAGI HISOBDO RLIGINING MONITORINGI.....	9
<b>3. Курамбаев Тохир Хосинбаевич</b> ТАНОСИЛ ЁКИ ОИВ КАСАЛЛИГИ/ОИТСНИ ТАРҚАТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНО- ЯТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	17
<b>4. Маматкулов Камолиддин Галабаевич</b> ЎЗБЕКИСТОНДА МУЛК ҲУҚУҚИ ИСЛОҲОТЛАРИ.....	19
<b>5. Джалилов Фуркат Закирович</b> ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИНИНГ МУЛКИЙ МАНФААТДОР- ЛИГИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	22
<b>6. Ш.Ф.Файзуллаев</b> КАСБИЙ МАЖБУРИЯТГА ЛОҚАЙДЛИК: ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАР.....	25
<b>7. Абдурахматова Камола Муроджон қизи</b> КОРРУПЦИЯВИЙ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА УЛАРНИНГ КРИМИНАЛИЗАЦИЯ ҚИЛИНИШИНИНГ ЗАРУРАТИ.....	28



## ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

### NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINI EKSPERTIZADAN O‘TKAZISHNING NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

**Asadov Eldorjon Nizomiddin o‘g‘li,**  
Toshkent davlat yuridik  
universiteti tayanch doktoranti,

**ANNOTATSIYA:** Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish masalalarining nazariy jihatlarini tahlil etilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** normativ-huquqiy hujjatlar, ekspertiza, qonunlar, qarorlar, farmonlar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, qonunchilik.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligini ta'minlashda hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash sifatini yaxshilashda normativ-huquqiy hujjatlarning ekspertizasi muhim o‘rin egallaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni mukammal, yangi ijtimoiy munosabatlar ko‘lami va darajasiga mos ravishda qabul qilish jarayonida ekspertiza instituti muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy asos qanchalik mustahkam bo‘lsa, qonunlarga qanchalik rioya etilsa, davlat va jamiyat ham shuncha rivojlanib boraveradi. Ayni paytda, zamon va islohotlar amaldagi qonunlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish – huquq ijodkorligi jarayonining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, qonunchilik hujjatlarining mukammal tayyorlanishi, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmini ta'minlash hamda respublikamizda olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy- ma'rifiy sohalaridagi keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish – huquq ijodkorligi jarayonining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, hujjatlarning mukammal tayyorlanishi, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmini ta'minlash hamda mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalaridagi keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun o‘ta murakkab va serqirra jarayon hisoblanmish normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, ularni har tomonlama ekspertizadan o‘tkazish, qabul qilish hamda ijrosini ta'minlash bilan bog‘liq faoliyat muntazam ravishda ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etib borilishi lozim.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi o‘z tabiatiga ko‘ra huquq ijodkorligi faoliyatining ajralmas qismi sanaladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari huquqiy ekspertizasi ahamiyati shu bilan belgilanadiki, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy va boshqa sohalaridagi ko‘plab masalalar faqat ekspertiza yordamida hal qilinishi mumkin, o‘tkazilgan ekspertiza xulosasi esa maqbul qaror qabul qilish uchun asos vazifasini o‘taydi.

Yu.Yu.Panina, A.Yu.Maevskiy, M.V.Genrixslarning fikricha, huquqiy eksperiment instituti davlat hayotida muhim rol o‘ynasa-da, huquq ijodkorligi jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazishning mazmun-mohiyatini aniq ko‘rsatib beradigan yaxlit bir tushuncha ishlab chiqilmagan [1].

Ayrim olimlar har qanday faoliyat turi doirasidagi tadqiqot tartib-taomili sifatidagi ekspertiza umumiy tushunchasini ta'riflashga harakat qilganlar. Masalan, Yu.V.Sidelnikov ekspertizani qisman noaniqlik sharoitida qabul qilinayotgan qarorlarni asoslantirish uchun materiallar tayyorlash maqsadida ekspertiza ob'ektlarini tahlil qilish va (yoki) baholash uchun ekspertlarni jalb qilish yo‘li bilan amalga oshiriluvchi baholash-tahlil faoliyati sifatida ta'riflaydi[2].



Hozirgi sharoitda qonun loyihalarining ekspertizasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, davlat organlari faoliyatining xo‘jalik, tibbiyot, huquqiy, ilmiy va boshqa sohalaridagi ko‘pdan-ko‘p masalalarni faqat ekspertiza yordamida hal etish mumkin, xulosa esa o‘tkazilgan ekspertizaning natijasi sifatida to‘g‘ri, asoslantirilgan qaror qabul qilish uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi [3].

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillarga asoslanib, ekspertiza institutining metodologik asoslarini o‘rganish asnosida quyidagi tushunchalarga ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ta’riflarni ilgari surish mumkin:

Qonunchilik hujjatlari loyihalari ekspertizasi – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari loyihalarini ilmiy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy, ekologik kriminologik, yuridik-texnik, lingvistik, gender jihatdan tekshirishdir.

Huquqiy ekspertiza – idoraviy normativ-huquqiy hujjatning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, unga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan boshqa qonun hujjatlariga, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi, shuningdek havola qiluvchi normalar qo‘llanilishining asosliliigi va maqsadga muvofiqligini tekshirishni amalga oshirishdir.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ekspertizasi – qonun hujjatlari, farmon va qarorlar hamda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertiza sub'ektlari (davlat va nodavlat muassasa, tashkilotlar) tomonidan Konstitutsiya, qonunlar va qonunosti normativ- huquqiy hujjatlarga muvofiqligi darajasi, qonunchilik texnikasi qoida- talablariga mosligi, huquqiy normalarning o‘zaro bog‘lanishi, respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy islohotlar yo‘nalishlariga muvofiqligi, huquqiy normalarning kompleksliliigi va uyg‘unligi holati hamda loyihadagi o‘zaro ichki ziddiyatlarni aniqlash, tekshirish va baho berishga qaratilgan intellektual faoliyatdir.

Xulosa qilib aytganda, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish bilan bog‘liq xorijiy tajriba hamda amaliyotni o‘rganish va eng asosiysi ularning ilg‘or jihatlarini milliy qonunchiligimizga uyg‘unlashtirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat huquqiy islohotlarning samaradorligini oshirishda, har tomonlama mukammal va sifatli bo‘lgan qonunchilik tizimini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Панина Ю.Ю., Маевский А.Ю., Генрихс М.В. Экспертизы нормативного правового акта в процессе правотворчества и её влияние на формирование российской правовой действительности // [http://izron.ru /articles/problemy-sovremennoy-yuridicheskoy-nauki-aktualnye-voprosy-sbornik-nauchnykh-trudov-po-itogam-mezhdu](http://izron.ru/articles/problemy-sovremennoy-yuridicheskoy-nauki-aktualnye-voprosy-sbornik-nauchnykh-trudov-po-itogam-mezhdu).
2. Сидельников Ю.В. Экспертиза: состояние и тенденция развития // *Мировая экономика и международные отношения*. – 1997. – №2. – С.23.
3. Андреев И.С. Системный подход к понятию экспертизы нормативно-правового акта // *Журнал Российского права*. 2001. – №6. – С.51–55.
4. Abdullaev B.D. O‘zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari huquqiy ekspertizasini takomillashtirish muammolari. yuridik fan. nomz. diss... avtoreferati. – T.: TDYuU, 2010. – 24 b.
5. Axmedshaeva M.A. Ijro etuvchi hokimiyat: nazariy-huquqiy masalalar.-T.: TDYuI, 2011. – 136 b.



## HUDUDIIY PROKURATURA ORGANLARINING XALQ DEPUTATLARI MAHALLIY KENGASHLARI OLDIDAGI HISOBDORLIGINING MONITORINGI

**Shomurotov Ma'ruf Abdusamat o'g'li**

Navoiy viloyati Navbahor tuman adliya bo'limi  
yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti  
Telefon raqam: +998934336642  
Shomurotovmf@gmail.com

**ANATATSIYA:** Maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan hududiy prokuratura organlarining xalq deputatlari mahalliy kengashlari oldidagi hisobdorligining monitoringi o'rganilgan, monitoring va nazorat qilish tushunchalari farqlari tahlil qilingan, prokuratura organlarining mustaqilligi, prokuror faoliyatida mustaqil hisobdorligi tushunchasi ilgari surilgan, shuningdek, prokuror faoliyatining asosiy vazifalariga oid masalalar ilmiy tahlil qilingan hamda bu borada tegishli takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** monitoring, nazorat qilish tushunchasi, prokuratura organlarining mustaqilligi, prokuror faoliyatida mustaqil hisobdorligi, prokuror hisobdorligi, mahalliy Kengash faoliyati, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda olib borilayotgan har bir sohada amalga oshiriladigan keng qamrovli islohotlar ko'plab davlatlar va ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining asosiy vazifasi “Prokuratura to'g'risida” qonunning 2-moddasida “Qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarlikning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat”. Shu vazifalarni bajarish uchun u tegishli yo'nalishlarda faoliyat yuritadi va aniq vakolatlariga egadir.

Bungungi kunda qonunustivorligini ta'minlashda qonun hujjatlarining monitoring tizimining imkoniyatlaridan foydalanish alohida hamiyat kasb etmoqda. Qonun hujjatlarining monitoring o'tkazishdan ko'zlangan maqsad qonunchilik tizimini takomillashtirish va amaldagi qonun hujjatlarining natijalarini doimiy kuzatib borishdir. Bundan tashqari, huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilikdagi bo'shliqlar o'z vaqtida aniqlaniladi.

Shu o'rinda, monitoring va nazorat tushunchalarini ham farqlab olish lozim. Chunki, prokuratura organlari qonun himoyasida turgan organ va bu Konstitutsiyaning 118-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Shu boisdan, monitoring deganda Kengash tomonidan prokurorlarning hatti-harakatlarini nazorat qilish emas, balki, ularning faoliyatida yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va prokurorga mazkur holatni to'g'irlashga oid takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida mahalliy vakillik hokimiyati organlari faoliyatiga alohida to'xtalib o'tgan edi. Davlatimiz rahbari ushbu organlar ishiga doir qator tanqidiy fikrlarni bildirdi: “Hisobotlarga e'tibor bersak, mahalliy Kengashlar faoliyatida go'yoki ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgandek tuyuladi, lekin ular faqat raqamlarda aks etmoqda, xolos. Bizga raqamlar emas, aniq natija kerak. Qachonki, hududlardagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgarsa, byudjet ijrosi to'liq ta'minlansa, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o'rinlari yaratilsa, eng muhimi, xalqimizning turmush darajasi yaxshilansa, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa bo'ladi. Afsuski, bironta tumanda xalq deputatlari Kengashining faoliyati namunali asosda tashkil etilgani yo'q”[1].

Shu alohida ta'kidlash joizki, nazorat qilishda ham monitoringni qo'llashga oid usullar va tamoyillardan foydalaniladi. Biroq, monitoringdan farqli ravishda aniqlangan holatlar yuzasida tavsiyaviy xarakterdagi hujjat qabul qilinadi. Nazorat qilishda esa majburiy xarakterdagi hujjatlar qabul qilinib, natijada obyektning faoliyatini taqiqlash, cheklash, to'xtatib qo'yish mumkin.

Monitoring qilishning yana bir faqrli tomoni o'rganilgan obyektning faoliyatini takomillashtirish, baholash, kuzatish, tahlil qilish, o'rganish orqali obyekt faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Jumladan, monitoring qilishning o'ziga xos jihatlari tadqiq qilgan olimlardan biri B.S Turdiyev



o‘zining “Qonun ustivorligini ta‘minlashda qonun hujjatlari monitoringini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi ilmiy maqolasida bir qator g‘oyalarni ilgari yuradi[2]. Jumladan, qonun hujjatlarining monitoringida parlamentning rolini kuchaytirish zarur. Mamlakatda hokimiyat bo‘linish prinsipining amalda to‘la tadbiiq etishni ta‘minlashga qaratilgan islohotlar jarayonida parlamentning nazorat qilish funksiyalari va vazifalarini yanada takomillashtirish. Bunda birinchi navbatda doimiy qo‘mitaning roli juda muhim.

F.A. Mashkurovning fikriga ko‘ra, monitoring - jamiyat va davlat tizimidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish darajasini doimiy kuzatib borish yoki bu haqida faktik ma‘lumotlar yig‘ish milliy huquq tizimi yoki huquq tizimining biror tarkibiy qismini baholash, prognozlash qilish, monitoring obyektini maqbul holatga keltirish usul va uslublarini ishlab chiqishga hamda ularni amaliyotga tadbiiq etishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar yig‘indisidir[3].

S.A. Varkova esa qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti monitoringini normativ huquqiy hujjatlarni qabul qilish, o‘zgartirish yoki bekor qilishni ta‘minlash maqsadida amaldagi normativ huquqiy hujjatlar va huquqni qo‘llash hujjatlari to‘g‘risida ma‘limotlarni yig‘ish, tahlil, qilish, qiyoslash, baholash tizimi sifatida ko‘riladi[4].

Fikrimizcha, **Prokuror ustidan monitoring-** viloyat va tuman (shahar) prokurorlari, Byuro hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari, Departamentning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari hisobotlarini eshitish jarayonida xalq **deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlarining faol ishtiroki ta‘minlanadi, jamoatchilik nazorati sub‘ektlari ishtirok etishi, prokuror hisobdorligi eshitish bo‘yicha yagona uslubiyot qo‘llaniladi. Shuningdek,** prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda **davlat va jamoatchilik nazoratini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi yangi tizim** joriy etish, prokuratura organlari faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta‘minlash, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish kabi ustivor vazifalar yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Prokuratura organlarining faoliyatining monitoring qilinishi sohadagi bir qator masalalarni yechilishiga yordam beradi. Birinchi navbatda prokuratura organlari faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta‘minlash, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytiriladi. Bundan tashqari, prokurorlar faoliyatini baholashda Kengash deputatlarining tavsiya va takliflari inobatga olinishga imkon beradi.

Prokuratura organlari faoliyatining Kengash tomonidan monitoring qilishning muammoli tarafi ham mavjud. Bilamizki, viloyat, tuman, shahar mahalliy Kengash deputatlarining ko‘pchiligi turli sohalarda faoliyat yurituvchi shaxslar saylov asosida saylanadi. Mutaxassisligi bo‘yicha yuridik sohadan anchagina uzoq bo‘lishadi va prokurorlar faoliyatini monitoring qilishning qiyinlashtiradi. **Bu esa monitoring qilishning birinchi muammosi hisoblanadi.**

**Bu borada** V.Kasyanovning fikricha, vakillik organi va deputatlik faoliyatining aniq reglamentlarini ishlab chiqqandan keyingina ular faoliyatining samaradorligini aniqlaydigan muayyan mezonlar va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish mumkin. Bunda samaradorlik tushunchasini tavsiflaydigan quyidagi omillarga e‘tibor qaratish lozim: fuqarolarning mahalliy vakillik organiga bo‘lgan ijobiy munosabati; tegishli hududda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning rivojlanib borayotganligi; mahalliy vakillik organining kuchli ijro apparati; yuqori malakali deputatlik korpusi va munitsipal xizmatlarning mavjudligi; vakillik organida kuchli partiya liderlarining borligi; vakillik organi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning to‘liqligi; nazoratning samarali yo‘lga qo‘yilganligi va boshqalar. Ayni paytda, mahalliy vakillik organlari va deputatlar faoliyatining samaradorligiga salbiy ta‘sir etuvchi quyidagi omillarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: moliyaviy va moddiy bazaning etarli emasligi; deputatlar va munitsipal xizmatchilari malakasining pastligi; korrupsiya; saylovchilardan uzilib qolganligi; etarli darajada normativ-huquqiy hujjatlar bazasining shakllanmaganligi; vakillik organida siyosiy partiyalardan namoyon bo‘lgan deputatlarining etarli darajada obro‘ga ega emasligi[5].

**Monitoring qilishning ikkinchi muammoli tomoni** prokuratura organlarida davlat va jamiyatda tutgan o‘rni va roli borasida hokimiyat taqsimotining hech qaysi biriga kirmasligi davlat boshqaruvida hozirda eng muzokarali xususiyatga ega masala hisoblanadi. Bu borada, turli adabiyotlarda, dissertatsilarda va maqolalarda olimlar tomonidan har xil fikrlar bildiriladi.

Masalan, bir guruh olimlar prokuratura organlarini ijro etuvchi organlar tizimiga kirtish lozim deb hisoblaydi. Jumladan, rus huquqshunos olimi N. Federov prokuraturani tashkiliy jihatdan



ijro etuvchi hokimiyat tarkibiga kiritishni taklif qiladi. Bunda, u chet el mamlakatlarining aksariyatida prokuratura hokimiyatning ijro etuvchi organlari tarkibiga kirishini dalil qilib keltiradi[6]. Shuningdek, boshqa olimlar tomonidan prokuror vakolatlar qonunlarni ijro etuvchi xususiyatiga ko‘ra ham ijro organlari tarkibiga kiritishadi.

Ikkinchi guruh olimlari va amaliyotchilari prokuratura organlari qonunlarni bajarilishini nazorat qilishi va qonunga muvofiqligini tekshirganligi sababli ushbu organni Qonunchilik palatasining “qo‘shimchasi” deb qarashadi. Ushbu guruh tarafdorlari fikriga qaraganda qonun chiqaruvchi qonunlarni chiqaradi prokuratura esa butun mamlakat miqyosida ularning ijrosini nazorat qilib boradi. Shu bilan birga, prokuratura qonun chiqaruvchi hokimiyat mexanizmlaridan biridir[7], prokuror nazorati esa, hokimiyatning maxsus turidir, u vakolatlarni bevosita qonun chiqaruvchidan olishi, ularni shakllantirishi va faqat uning oldida hisobdor bo‘lishi kerak[8].

Fikrimizcha, ikki guruh olimlari fikrini ham xato deb bo‘lmaydi. Lekin, o‘ylashimizcha, birinchidan, yuqoridagi ikkala olimlar guruhi ham o‘z davlatlarining milliy qonunchiligidan kelib chiqqan holda ushbu fikrlarni ilgari surmoqda.

Ikkinchidan, birinchi olimlar guruhi prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilsih funksiyasiga unchalik ham e‘tibor qaratmayapdi. Chunki, prokuratura organlarining birinchi vazifasi, avvalombor, nazorat qilishdir. Ikkinchi guruh olimlari esa, prokuratura organlarining boshqa vazifalari ya‘ni jinoyat va surishtiruv organlarini muvofiqlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va boshqa vazifalariga e‘tibor qaratmayapdilar.

Yana boshqa bir guruh, olimlari V.N.Yeryominaning ta‘kidlashicha, “Zamonaviy prokuratura hokimiyatning hech qaysi tarmog‘iga kirmaydi, u hokimiyatlar bo‘linishining shakllanayotgan tizimida zaruriy mexanizmni ifodalaydi hamda tiyib turish va muvozanat tizimining muhim elementi hisoblanadi. Prokuraturaning mustaqilligi – uning qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur sharoitdir”[9]. Xuddi shuningdek, o‘zbek huquqshunos olimlari ham shu fikrda qo‘shilishadi. Jumladan, U.X. Abdualimov, Z. Ismoilov, G‘.Alimov, F.A. Nazarov, O.Madaliyev va boshqalar prokuraturaning hech qaysi tarmoqqa kirmasligi mustaqil bo‘lishini qayt etgan.

Misol uchun, F.A. Nazarov Konstitutsiya asosida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘lingan davlat hokimiyati tizimida prokuratura o‘zi funksional vazifasining mohiyatiga ko‘ra ushbu hokimiyatlarning birortasiga mansub emas va hokimiyat birliklarining “o‘zaro tiyib turish mexanizmi”da “qonun himoyachisi” sifatida namoyon bo‘ladi. Shu kabi, U.X. Abdualimov ushbu olimlarning prokuraturaning hech qaysi hokimiyatga mansub bo‘lmagan, o‘ziga xos, mustaqil, hokimiyatlar orasidagi oqilona muvozanatni ta‘minlaydigan institut ekanligi haqidagi mulohazalarini huquqiy jihatdan va prokuraturaning tarixiy shakllanish mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri deb hisoblash mumkin.

Yana bir huquqshunos olim O.M.Madaliyev esa, “mustaqillik tamoyili –bu prokurorlar tomonidan o‘zlarining barcha funksional qaror va harakatlarini qonunga asosan olib borishlaridir (nazoratni amalga oshirish, tergov olib borish va b.)” deb qayd etgan[10].

Fikrimizcha ham, **prokuratura mustaqil-hisobdor** bo‘lishi lozim. Chunki, amaliyotda prokuratura organlarining **mustaqil- hisobdorligi**:

Birinchidan, prokuratura nafaqat davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlaridan mustaqil, balki har qanday boshqa sub‘ektlarning salbiy ta‘siri va tahdididan ham himoyalangan bo‘lishi lozim. Chunki, prokuraturaning davlat hokimiyatining biron-bir tarmog‘iga, ya‘ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyatiga, shuningdek, ma‘lum bir guruh, partiya, tashkilot yoki alohida shaxslarga huquqiy yoki amaliy jihatdan tobe bo‘lib qolishi uni muqarrar ravishda iqtisodiy, siyosiy yoki huquqiy “lobbi” vositasiga aylanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, prokuratura faoliyatiga noqonuniy aralashuv uning fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasidagi qonun bilan belgilangan vakolatlaridan to‘laqonli va samarali foydalana olishiga to‘sqinlik qiladi. Buning oqibatida esa, jamiyatda qonun ustuvorligining ta‘minlanishi u yoqda tursin, qonuniylik amal qilmay qo‘yadi, fuqarolarning o‘zaro yoki davlat bilan munosabatlarini, davlat organlari va mansabdor shaxslarining faoliyatini tartibga solishdagi huquqning o‘rni va rolini shaxsiy qarash va yondashuvlar egallay boshlaydi.

Uchunchidan, harakat va amallar qonun bilan tartibga solingan “huquqiy maydon” doirasidan chetga chiqadi, o‘zboshimchalik va boshboshdoqlik avj oladi, huquqiy nigilizm rivojlanadi.

To‘rtinchidan, xalqaro tajribadan ham ko‘rish mumkinki, MDH davlatlaridan tashqari bir



qator davlatlarda prokuratura organlari konstitutsiyaviy huquqiy asoslari prokuraturaning mustaqilligini ko'rsatadi. Misol uchun, Gretsiya konstitutsiyasining 87-moddasi 3-bandida “Prokuratura organlari faoliyati mustaqil va ular sudyalari ustidan nazorat olib boradi[11]” deb ko'rsatilgan. Ispaniya konstitutsiyasining 124-moddasida “Prokuratura boshqa organlar tomonidan bajariladigan funktsiyalardan qat'i nazar, qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan jamoat manfaatlarini, o'z vazifalaridan yoki belgilangan tartibda himoya qilish maqsadida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashish vazifasini bajaradi. Sudlarning mustaqilligi va ularning jamoat manfaatlarini ko'zlab bajarilishini nazorat qiladi[12]”, deb ko'rsatilgan.

Bugungi kunda prokuratura organlari va ularning faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslar haqida tur xil fikr va mulohazalar mavjud. Shu jumladan, **O.X. Abdulimovning** “Prokuratura organlarining davlat mexanizmida tutgan o'rni va faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ayrim mulohazalar” va **F.A.Nazarovning** “Prokurorlarning mustaqillik tamoyili: amaliyot va xorijiy tajriba” ilmiy maqolalarida prokuror mustaqil bo'lishi kerakligining bir nechta huquqiy asoslarini keltirishgan.

Fikrimizcha, prokuratura organlarining maqomi oshirish, uning funktsiya va majburiyatlarini to'g'ri belgilash, ushbu idorada xizmat o'tash tartibi, faoliyatini samaradorligini oshirish, hisobdorligining tashkiliy asoslari, javobgarlik asoslari kabi muhim masalalarini qonun kiritish va real amal qilinishini ta'minlash hozirda birlamchi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ushbu sanab o'tilgan vazifalarni hal qilingandan so'ng prokuratura organlarining hisobdorligi va uning monitoringiga oid qonunchilik normalarini takomillashtirish masalasini fikrimizcha ko'tarish to'g'ri bo'ladi.

Fikrimizcha, prokuratura organlarining hisobdorligi bir yoki bir necha qonun yoki farmonlar bilan emas, balki yagona normativ - huquqiy hujjat bilan tartibga solinishi lozim.

Bu borada esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi bo'yicha 14-maqsadda Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida inson qadrini belgilash, avvalo, Qonuniylikni qat'iy ta'minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda “Qonun — ustuvor, jazo – muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirish belgilangan. Shuningdek, uchta alohida vazifa bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqish ko'rsatilgan:

1. Prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat va jamoatchilik nazoratini o'zaro uyg'unlashtiruvchi yangi tizim joriy etish;

2. Prokuratura organlari faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash;

3. Prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish;

Shu munosabat bilan, prokuratura organlari hisobdorligi to'g'risida qonun qabul qilish zaruratga aylanmoqda. O'z navbatida, “Hududiy prokuratura organlarining xalq deputatlari mahalliy Kengashlari oldidagi hisobdorligining namunaviy nizom” to'g'risidagi Oliy majlis Senati qarori ham hududiy prokuratura organlarining xalq deputatlari mahalliy Kengashlari oldidagi hisobdorligining monitoringi ham o'z ifodasini topish lozim.

Fikrimizcha, prokuraturaning maqomini oshirish, uning funksiyalarini va majburiyatlarini to'g'ri belgilash, ushbu organning hisobdorlikni aniq tartibini o'rnatish, faoliyatga zamonaviy ilg'or tajribalarni joriy etish, faoliyat samaradorligini oshirish kabi muhim masalalarni qonunga kiritish hamda real amal qilishini ta'minlash hozirda birlamchi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarni hal qilgandan so'ngina ushbu masalarni ko'tarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, U.X. Abdulimovning ta'kidlashicha, “Hozirga qadar yuqorida keltirilgan Qonun qabul qilangani yo'q. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida xizmatni o'tashga doir Qonunni qabul qilish zarur bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida mazkur Qonunda O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlariga xizmatga qabul qilishga oid umumiy talablar, qabul tartiblari, mazkur idorada xizmatni o'tashga doir qoidalar, xizmat davomida sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatlar uchun javobgarlikning aniq belgilanishikabi masalalar o'z ifodasini topishi lozim[13].

Fikrimizcha, ushbu nizomning qabul qilinishi prokuratura organlarining xizmat vazifalarini



aniq belgilab beradi. Shuningdek, prokurorlarning faoliyatini monitoring qilish aniq hujjat aniq nizomi mavjud bo‘ladi.

Darhaqiqat, hisobdorlikning yetarli emasligi prokuraturada korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning xavfini kuchayishiga sabab bo‘ladi. Boshqacha aytganda, prokurorlar har qanday noqonuniy aralashuvdan mustaqil bo‘lsalarda, va lekin, ular pora olishga yoki boshqa noqonuniy korrupsiyaviy yo‘llar bilan boyishga moyil bo‘lsalar, nazorat, mas’uliyat yoki javobgarlik mexanizmi mavjud emasligi oqibatida, tizim, shubhasiz, hech qachon xolis bo‘lmaydi va adolat tamoyili prokuraturaning o‘zida buziladi. Shu bois, hisobdorlikni to‘g‘ri o‘rnatishdagi asosiy muammo uning ko‘zlangan maqsadga qanchalik mosligi, samarali yo‘lga qo‘yilganligi, ayniqsa, davr talabidan kelib chiqqan holda jamoatchilik nazorati kabi ta’sirchan vositalar bilan o‘zaro muvofiqligi ta’minlanganligi kabi qator omillar bilan bog‘liqdir. Shu boisdan ham, faqatgina hisobdorlikni o‘zi yetarli emas, chunki, prokuratura organlarining hisobdorli faoliyatini monitoringi bo‘lishi zarur deb hisoblaymiz. Chunki, xalq deputatlari mahallik Kengashlariga berilgan ma’lumotlariga to‘g‘ri yoki xato ekanligi bilishning iloji yo‘q va bu hech qaysi qonun hujjatida ham berilmagan.

Qayd etilgan fikrlarga shuni xulosa qilish va umumiyLashtirib quyidagilarni ilgari suramiz,

**Birinchi**dan, prokuratura organlari faoliyati hisobdorligi, monitoring qilishni yagona huquq manbayini yaratish lozim. Shuningdek, qonun ijodkorligi sohasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar butunlay yangicha tashkil qilishdan iboratdir. Asosiy e’tiborni qonunlar xalq manfaatini qanchalik ifoda etishiga qaratish kerak. Mazkur o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritishdan asosiy maqsad xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakolatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilinadigan qonunning o‘ziga aks ettirishdir. Bu esa deputatlarning prokuratura organlarining hisobdorligini eshitishda deputat nazoratini kuchaytiradi. Shuningdek, deputatlar o‘z vakolatlarini to‘la qonli amalga oshirish imkonini beradi. Busiz prokuratura organlari faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta’minlash uchun kelajakda rivojlanishimiz mushkul bo‘ladi. Ya’ni batamom yangicha tipdagi qonunlarni qabul qilish zarur. Yuqoridagi fikrlarga asosan, **O‘zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuniga quyidagicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar** kiritish lozim. Mazkur qonunning **24-moddasi Xalq deputatlari Kengashining vakolatlari quyidagicha bayon etiladi:** *“tegishli viloyat va tuman (shahar) prokurorlari hisobotlarini eshitish, Byuro hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari hisobotlarini eshitish, Departamentning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari hisobotlarini eshitish”* degan yangi qoida kiritish lozim.

**Ikkinchi**dan, prokuratura faoliyatini monitoring qilish prokuror faoliyatidagi mustaqillik prinsipi, prosesual jarayonlarga aralashish yoki cheklash mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni 17-maqsad 60- banddiga asosan prokuratura organlarining qonuniylikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq va adolatli **prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish** hamda **“Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar”** tamoyilini bosh mezoniga aylantirish maqsadi belgilandi. Jumladan, Prokuratura organlari faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta’minlash belgilandi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6012-son farmonida prokuratura organlari faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiq shakllarini joriy etish, prokuratura faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta’minlash, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish kabi vazifalarni bajarish belgilandi. Shu boisdan birinchi galda “Prokuratura to‘g‘risida” qonunda hisobdorlik prokurorning asosiy prinsipi sifatida kiritilishi: birinchi, prokuratura organlari faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiq shakllarini joriy etadi. Masalan, Xitoy xalq Respublikasining Konstitutsiyaning 132-moddasida Oliy xalq prokuraturasi Xalq Vakillarining Butunxitoy Majlisi va uning Doimiy qo‘mitasi oldida, mahalliy xalq prokuraturalari esa davlat hokimiyatining mahalliy organlari va yuqori turuvchi xalq prokurorlari oldida hisobdor sanalishi belgilangan[14]. Bundan tashqari, Polsha Respublikasida Polsha Bosh prokurori har yili parlamentga hisobot berib, o‘ziga nisbatan operativ nazorat o‘rnatilgan shaxslar haqida axborot taqdim etadi. Shuningdek, Milliy prokuratura prokuratura ustidan nazorat qiluvchi organ, Prokurorlar milliy kengashi ham mavjud bo‘lib, prokurorlar mustaqilligini kafolatlaydi. Ukraina “Prokuratura to‘g‘risida” gi 6-moddasida esa prokuratura organlarining hisobdorlikka oid normalari[15]:



1. Prokuratura organlari o‘z faoliyati to‘g‘risida yiliga kamida ikki marta ommaviy axborot vositalari orqali aholini xabardor qiladilar.

2. Bosh prokuror shaxsan yiliga kamida bir marta umumiy statistik va tahliliy ma‘lumotlarni taqdim etish orqali Ukraina Oliy Radasining yalpi majlisida prokuratura organlari faoliyati to‘g‘risida hisobot beradi.

3. Viloyat va mahalliy prokuratura organlari rahbarlari ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etiladigan tegishli Kengashning ochiq yalpi majlisida yiliga kamida ikki marta tegishli ma‘muriy-hududiy birlik aholisini o‘z faoliyati yakunlarini umumlashtirilgan statistik va tahliliy ma‘lumotlarni taqdim etish orqali ushbu hudud to‘g‘risida xabardor qiladilar.

4. Prokuratura faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalarida hamda prokuraturaning rasmiy veb-saytlarida e‘lon qilinadi.

5. Prokuratura organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Ukraina prokuraturasini tashkil etish va faoliyati to‘g‘risida ular tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni e‘lon qiladi.

**Ikkinchidan**, qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat va jamoatchilik nazoratini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi yangi hisobdorlik tizim joriy etish va qonunning ta‘sirini kuchaytiradi. Yuqoridagilarga asosan, “Prokuratura to‘g‘risida” gi qonuning 5-moddasiga “Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik, oshkorlik, hisobdorlikdir” deb, o‘zgartirish kiritish lozim.

**Uchunchidan**, monitoring qilish natijalari yuzasidan axborot texnologiyalarini sohaga keng jalb etish lozim. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI asrda davlat boshqaruvi takomillashtirishda axborot texnologiyalar yetakchi faktor hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalari davlat boshqaruvining barcha tarmoq va sohalarida xavfsizlik, huquqiy targ‘ibot va qonuniylikni ta‘minlashda davlat boshqaruvining bir qismiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son farmoniga asosan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish belgilandi. Shu munosabat bilan “prokuror hisobdorligi” joriy etish lozim. **Prokuratura.uz rasmiy sayti yoki pro.report.uz** rasmiy saytida prokuratura organlarining o‘z faoliyati haqidagi hisobotlarni Respublika -viloyat -tuman(shahar) kesimida to‘liq e‘lon qilib borishi lozim. Bunda keng jamaotchilik, fuqarolik institutlari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ma‘lumotlar erkin foydalanish va xabardor bo‘lish imkoniyati yaratiladi. Xuddi shunga o‘xshash tarzda mahalliy Kengashlar o‘z hududidagi prokuror hisobdorligi haqidagi qarorlarini rasmiy veb saytlariga e‘lon qilib borishi lozim. Biroq, oshkor etilishi qonun bilan belgilangan holatlar mundan mustasno.

**To‘rtinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida” gi qonunning 45-moddaga quyidagicha qoida kiritish lozim:

*“Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, shuningdek, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning faoliyati tegishli yuqori turuvchi prokurorlar, tegishli xalq deputatlari mahalliy Kengash deputatlari tomonidan ularning vakolat muddati davomida kamida ikki marta kompleks **monitoring** qilinadi. Prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ta‘minlanishi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 2-sektor faoliyati hisoblanadi.*

*Oliy Majlis Senati tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar faoliyatini baholash indikatorlar belgilanadi”*

**Beshinchidan**, prokuror faoliyati hisobdorligi va faoliyatidagi monitoring qilishga oid xalqaro tajribalardan keng foydalanish lozim. Bu borada MDH davlatlari ( Armaniston, Ozarbayjon Rossiyav ava boshqa davlatlar ) va Aqsh, Germaniya, Polsha, Vengiriya, Xitoy, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi o‘rganildi. Xususan, Ukraina Respublikasida prokuratura organlarining hisobdorligi Bosh prokurorning alohida hisobdorligidan tashqari Viloyat va



mahalliy prokuratura organlari rahbarlari ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etiladigan tegishli Kengashning ochiq yalpi majlisida yiliga kamida ikki marta tegishli ma'muriy-hududiy birlik aholisini o'z faoliyati yakunlarini umumlashtirilgan statistik va tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish orqali ushbu hudud to'g'risida xabardor qiladilar. **Ozarbayjon Respublikasi prokuraturasi** esa “prokuratura ustidan nazorat” ni Davlat rahbari, Oliy Majlis, Sud tomonidan olib boriladi. Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyaning 132-moddasida Oliy xalq prokuraturasi Xalq Vakillarining Butunxitoy Majlisi va uning Doimiy qo'mitasi oldida, mahalliy xalq prokuraturalari esa davlat hokimiyatining mahalliy organlari va yuqori turuvchi xalq prokurorlari oldida hisobdor sanalishi belgilangan. Yaponiyada har bir okrug prokurori ustidan nazorat komissiyasi tuzilish belgilangan. Bundan tashqari, prokuratura organlarining jinoiy va intizomiy javobgarligi tortish tartibi, lavozimi tayinlash va lavozimidan ozod qilish tartibi, prokuratura organlari ustidan alohida nazorat etuvchi Kengash va Milliy komissiyalar tuzilganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiyasi tuzilgan[16]. Kommissiya a'zolari senat tomonidan senatorlar orasidan vakolatli muddatga saylangan. Kommissiyaning asosiy vazifalari etib belgilangan:

prokuratura organlari faoliyati ustidan, qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha ular zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishining samaradorligi ustidan muntazam parlament nazoratini amalga oshirish;

prokuratura organlari faoliyatida muntazam uchraydigan kamchiliklar va huquqbuzarliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida ularning huquqni qo'llash amaliyotini har tomonlama o'rganish va umumlashtirish;

prokuratura organlari faoliyatini tartibga solib turuvchi qonun hujjatlarini, shuningdek ularning huquqni qo'llash amaliyoti va ish usullarini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Yuqoridagilarga asosan Mahalliy kengashning Sud -huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha doimiy komissiyasi tarkibiga 7 ta deputatdan iborat muvaqqat kommissiya tuzib, hisobot bo'yicha materiallarni puxta tayyorlash maqsadida tegishli kommissiya tomonidan soha mutaxassislarini jalb etgan holda ishchi guruh tashkil etib, prokuror hisobotlarini monitoring qilish mumkin.

Shu sababli, 2021-yil 31-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashining namunaviy reglamenti hamda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashining doimiy komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi SQ-360-IV-son II-bob. 12-bandi quyidagicha qoidani kiritish lozim. *“Doimiy komissiyasi tarkibiga 7 ta deputatdan iborat muvaqqat kommissiya tuzib, hisobot bo'yicha materiallarni puxta tayyorlash maqsadida tegishli kommissiya tomonidan soha mutaxassislarini jalb etgan holda ishchi guruh tashkil etib, prokuror hisobotlarini monitoring qilish mumkin”.*

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (22 декабрь 2017 йил). – Т.: Ўзбекистон, 2018.
2. B.S. Turdiyev. “Qonun ustivorligini ta'minlashda qonun hujjatlari monitoringini takomillashtirish masalalari” ilmiy mqola. Bosh prokuratura akademiyasi axborot nomasi. 2019 yil to'plam.294- bet.
3. Mashkurov F.A. Huquqiy monitoringni ta'minlash mexanizmlari/Toshkent ...: 2012.23-bet
4. B.S. Turdiyev. “Qonun ustivorligini ta'minlashda qonun hujjatlari monitoringini takomillashtirish masalalari” ilmiy mqola. Bosh prokuratura akademiyasi axborot nomasi. 2019 yil to'plam.295- bet.
5. Касьянов В.С. Проблемные вопросы оценки эффективности деятельности представительного органа местного самоуправления // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки СКАГС. 2009. – С.36.
6. “Замонавий юридик илм-фан ва таълим:долзарб муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари / Масъул муҳаррир Е.В. Коленко. – Тошкент: “Lesson press”. 2021. –621 б.
7. Корневский Ю.В. Становление правового государства в Российской Федерации



и функции прокуратуры. Круглый стол / Ю.В. Кореневский // Государство и право. - 1994. - № 5. - С. 3-34.

8. Виноградов О.А. Прокуратура в системе органов государственной власти // Законность. - 1997. - № 4. - С. 47-49.

9. Абдуолимов Ў.Х. Прокуратура органларининг давлат механизмида тутган ўрни ва фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш юзасидан айрим мулоҳазалар. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси академияси замонавий юридик илм-фан ва таълим: долзарб муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция. Тошкент – 2021. 622б

10. Мадалиев О.М. Прокурор назорати. Дарслик. Умумий қисм. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. – Б.106.

11. <https://legalns.com/download/books/cons/greece.pdf>

<http://vivovoco.astronet.ru/VV/LAW/SPAIN.HTM>

Абдуолимов Ў.Х. Прокуратура органларининг давлат механизмида тутган ўрни ва фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш юзасидан айрим мулоҳазалар. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси академияси замонавий юридик илм-фан ва таълим: долзарб муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция. Тошкент – 2021. 9-б

12. [https://chinalawinfo.ru/constitutional\\_law/constitution/constitution\\_ch3p7](https://chinalawinfo.ru/constitutional_law/constitution/constitution_ch3p7)

13. [https://kodeksy.com.ua/ka/o\\_prokurature/statja-3.htm](https://kodeksy.com.ua/ka/o_prokurature/statja-3.htm)

14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-y., 2-son, 59-modda



## ТАНОСИЛ ЁКИ ОИВ КАСАЛЛИГИ/ОИТСНИ ТАРҚАТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.

**Курамбаев Тохир Хосинбаевич**

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги  
Академияси Дастлабки тергов ва криминалистика  
кафедраси ўқитувчиси майор

**АННОТАЦИЯ.** Мақолада муаллиф томонидан таносил ва ОИВ касаллиги ҳамда ОИТСнинг тушунчаси, келиб чиқиши ва ўзига хослиги, шу билан бирга таносил ва ОИВ касаллиги ҳамда ОИТСни тарқатиш билан боғлиқ жиноятларнинг тушунчалари, уларни тергов қилиш фаолиятига оид ўзига хосликлари кўрсатилган.

**КАЛИТ сўзлар:** таносил, ОИВ, ОИТС, жинсий йўл, вирус, иммунитет танқислиги, танқислик синдроми, жиноят иши.

Маълумки, XXI асрда жаҳон ҳамжамиятининг олдида турган долзарб муаммолар қаторида таносил ва ОИВ касаллиги, ОИТС ҳамда жинсий йўл билан юқадиган касалликларнинг тарқалиши ва бу салбий ҳодисаларга қарши кураш алоҳида ўрин тутди.

Афтидан, Ўзбекистон ва бошқа етакчи жаҳон давлатларининг ваколатли органлари ОИВ касаллигининг комплекс профилактикаси бўйича самарали чора-тадбирларни қабул қилиш ва амалга оширишда кечикишган. Глобал фалокатнинг олдини олиш учун зудлик билан ОИВ ва таносил касалликлари, шунингдек ОИТСнинг келишилган, комплекс, самарали профилактикасини ишлаб чиқиш зарур бўлади. Ушбу дастур тизимли, кўп мақсадли ва оптимал тарзда амалга оширилиши лозим.

Бугунги кунда ушбу касалликлар замонавий жамиятни том маънода босиб олди, аҳолининг барча ижтимоий гуруҳларига кириб борди ва дунё қитъалари бўйлаб ғалабали юришини давом эттирмоқда.

Ўзбекистонда 45 минг киши орттирилган иммунитет танқислиги синдроми (ОИТС) билан касалланган. Қайд этилишича, ОИТСга чалинганларнинг 55 фоизини эркаклар, 45 фоизини аёллар, 14 фоизини эса 18 ёшга тўлмаган болалар ташкил этади [1].

ОИТС билан касалланиш кўрсаткичи юқорилиги ички миграция ҳамда аҳоли сонини кўплиги ҳисобига Тошкент шаҳри ҳамда Тошкент вилоятига тўғри келмоқда.

Шунингдек, дунё бўйлаб 20 ёшгача бўлган 2,8 миллионга яқин болалар, ўсмирлар ва ёшлар орттирилган иммунитет вируси (ОИВ) билан яшаётганлиги аниқланган.

Шу ўринда ОИВ касаллигининг назарий тушунчаларига тўхталиб ўтиш лозим бўлади. Хусусан, ОИВ инфекцияси – одамнинг иммунитет танқислиги вируси келтириб чиқарадиган сурункали юқумли касаллик ҳисобланиб, вирус бемор одам организмида бутун ҳаёти давомида сақланиб қолади. Инфекция дастлаб яширин тарзда кечиши, бу давр бир неча ойдан 5-10 йилгача ва ундан ҳам ортиқроқ давом этиши мумкин. Касалликнинг яширин даврида вирусни юктириб олган шахслар кўринишидан соғлом бўлиб, уларда касалликнинг ҳеч қандай белгилари кузатилмайди. Касалликнинг шу даври анча хавфли ҳисобланиб, инфекцияни юктириб олган шахслар ўзлари билмаган ҳолда касалликни бошқаларга юктириб юришлари мумкин. ОИВ инфекциясида меъёрда ишлаб турган иммун тизими йиллар давомида вируснинг тажовузини босиб туради. Аммо, вирус организмда кўпайиб аста-секин иммун тизимни мутлақо издан чиқаради ва натижада ОИТС ривожланади [2]. Орттирилган иммунитет танқислиги синдроми (ОИТС) – одамнинг иммун тизимини иммунитет танқислиги вируси шикастлаши натижасида касаллик белгилари келиб чиқадиган хасталикнинг сўнгги босқичидир [3].

Касалликнинг асосан уч хил: ОИВ инфекцияси бор шахслар билан ҳимояланмаган жинсий алоқа қилганда – жинсий; гиёҳванд моддаларни гуруҳ бўлиб томир орқали қабул қилганда, вирус билан зарарланган, текширилмаган қон ва унинг таркибий қисмлари қуйилганда, зарарсизлантилмаган (етарлича дезинфекция қилинмаган) жарроҳлик, доялик, стоматологик, сартарошлик ва бошқа асбоблар орқали тиббий муолажалар олганда, шприц ва игналардан умумий фойдаланилганда парентерал; инфекцияга чалинган ҳомиладор онадан болага ҳомиладорлик даврида жароҳатланган йўлдош орқали, бола туғилиши жараёнида туғруқ йўллари жароҳатланиши туфайли ва болани эмизиш жараёнида она сути орқали –



вертикал йўл билан юқиши исботланган [4].

Қонга вирус тушгандан сўнг дастлабки даврларда одам ўзини соғлом ҳис этади. Бу ҳолат хаттоки 8-10 ва ундан кўп йилларгача давом этиши мумкин. Шундан сўнг дастлабки клиник белгилар: сабабсиз узоқ давом этувчи йўтал; одамнинг қисқа вақт ичида кескин озиб кетиши; ҳароратнинг узоқ вақт сабабсиз кўтарилиши ва ич кетиши (диарея); оғиз бўшлиғи ҳамда турли аъзоларнинг яллиғланиш белгилари; хавфли ўсмаларнинг ривожланиши намоён бўла бошлайди. Беморлар ОИВнинг бевосита таъсиридан эмас, балки юқоридаги қўшимча касалликларнинг асоратлари туфайли ҳаётдан кўз юмадилар [5].

Дунёнинг кўплаб давлатларида ушбу инфекцияга қарши вакцина ва дори воситасини яратиш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. Бугунги кунда ОИВ билан касалланган шахсни вирусдан бутунлай холи қилувчи дори воситаси мавжуд эмас. Бунга сабаб вируснинг ўта ўзгарувчанлигидир. Яқин йилларда бу касалликдан бутунлай холи қилувчи дори воситалари яратилиши ҳам эҳтимолдан йироқ эмас, қувонарли томони шундаки, бугунги кунда ОИВ инфекциясини юқтирган одамнинг умрини соғлом одамнинг умричалик чўзиш мумкин. Бунинг учун вирусга қарши даволаш усули – ретровирусга қарши терапия мавжуд. ОИВ ретровируслар оиласига мансуб вирус бўлгани учун унга қарши дори воситаларини ретровирусга қарши препаратлар деб, унга қарши даволаш усулини эса ретровирусга қарши терапия (РВҚТ) деб юритилади. РВҚТ вирусни тўлиқ йўқ қилмаса ҳам, унинг бемор организмда кўпайиб боришига йўл қўймайди, яъни унинг таъсирида қонда вируслар сони камайиб, иммунитет кучаяди, вирусга қарши курашувчи хужайраларнинг сони ортиб, ОИВ инфекцияли шахсни соғлом ҳаёт кечириши ва узоқ умр кўришига имкон яратади.

Жиноятчиликка қарши курашда йўл қўйилаётган ҳар қандай камчилик ва ҳаракатсизлик, жумладан, жинсий йўл билан юқадиган касалликлар ва ОИВ инфекцияси тарқалиши билан боғлиқ жинсий ҳаракатлар жамиятда салбий муносабатни келтириб чиқаради [6]. Бу таносил касалликлари ва ОИВ инфекциясига қарши қатъий, мақсадли ва кенг қамровли курашни тақозо этади.

Таносил касаллиги ва ОИВ инфекцияси билан касалланиш билан боғлиқ жиноятларни фош этиш ва тергов қилишнинг назарий муаммоларини ўрганиш ҳамда уларни аниқлаш, фош этиш, тергов қилиш бўйича фаолият самарадорлигини оширишга қаратилган амалий ва илмий-услубий тавсиялар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. <https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-kancha-odam-OITSga-chalingani-ochiqlandi-54691>
2. Азарова э. С. Жиноятларни очиш ва тергов қилишга уюшган қарши курашиш муаммолари: дисс .... канд. қонуний Фанлар. Волгоград, 2006 йил.
3. Рйжаков А.П. Жиний жараён / Университетлар учун дарслик. М., 2003 йил.
4. Генисаретская э. Ю. Тергов ҳаракатлари: моҳияти, ташкил этилиши, тактикаси: дисс.... санд. қонуний Фанлар. Москва, 2005 йил.
5. Илина АМ Жиноят жараёнида махсус билимлардан мажбурий фойдаланиш: дисс.... санд. қонуний Фанлар. Екатеринбург, 2005 йил.
6. Заблотский П. Н. Жиноятларни очиш ва тергов қилишда суд-тиббий маълумотлардан фойдаланиш бўйича фаолиятни такомиллаштириш: дисс. ... санд. қонуний Фанлар. Волгоград, 2005 йил.



## ЎЗБЕКИСТОНДА МУЛК ҲУҚУҚИ ИСЛОҲОТЛАРИ.

**Маматкулов Камолиддин Галабаевич.**

Андижон вилояти юридик техникум ўқитувчиси.

Қодиров Зафарбек Анварбекович

Андижон вилоят юридик техникум директорининг  
ёшлар билан ишлаш бўйича ўринбосари.

**Аннотация:** Ўзбекистонда мулк ислохотлар ҳақида маълумот берилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Мулк ҳуқуқининг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш, мулкий муносабатларга асосиз аралашувга йўл қўймаслик, хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони мазмун моҳияти бўйича қисқача тушинтириш берилган. Ўзбекистон Қонунчилигига мол-мулкка эгалик муддати бўйича таклиф берилган.

**Калит сўзлар:** мол-мулк, эгалик, муддати, хусусий, ҳимоя, фуқаролик кодекси.

Ўзбекистон Республикасининг конституциясига асосан мулк дахлсизлиги кафолатланган. Ўзбекистон Республикаси конституциясинг 36-моддасида-Ҳар бир шахс мулкдор бўлишга ҳақли. Банкка қўйилган омонатлар сир тутилиши ва мерос ҳуқуқи қонун билан кафолатланадиган белгилаб қўйилган.[1]

24.09.2012 йилда қабул қилинган ЎРҚ-336-сонли "Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Қонунинг 2-моддасида Хусусий мулк дахлсиз ва давлат ҳимоясидадир деб кўрсатиб ўтилган.[2]

Хусусий мулкни ҳимоя қилиш бўйича Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигида мулкдор томонидан ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш Ўзбекистон Республикаси конституциясининг 53-моддасида-"Хусусий мулк бошқа мулк шакллари каби дахлсиз ва давлат ҳимоясидадир. Мулкдор фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибдагина мулкдан маҳрум этилиши мумкин" [3]ҳамда ЎРҚ-336-сонли Қонунинг 15-моддасида "Мулкдор давлат органлари ва бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг хусусий мулк ҳуқуқининг амалга оширилиши билан боғлиқ қонунга ҳилоф қарорлари, улар мансабдор шахсларининг қонунга ҳилоф ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан, ўз хоҳишига кўра, бўйсунув тартибида юқори турувчи органга ёки мансабдор шахсга ёхуд судга шикоят қилиш ҳуқуқига эга. Бўйсунув тартибида юқори турувчи органга ёки мансабдор шахсга шикоят бериш бундай шикоятни судга бериш ҳуқуқини истисно этмайди. Мулкдор хусусий мулк ҳуқуқининг амалга оширилиши билан боғлиқ ўз ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари бузилганлиги тўғрисида давлат органларининг ва бошқа органларнинг фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга мурожаат этганида давлат божи тўлашдан озод қилинади".[4]

2022 йил 24-август куни Ўзбекистон Республикаси президентининг ПФ-198-сонли" Мулк ҳуқуқининг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш, мулкий муносабатларга асосиз аралашувга йўл қўймаслик, хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, мулк дахлсизлиги муҳофазасини янада мустаҳкамлаш ҳамда хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини оширишни назарда тутувчи бир қатор янги тартиблар жорий қилинди. Шу жумладан:

Мулкка бўлган ҳуқуқни уни вужудга келтирган ҳужжатни бекор қилиш орқали тугатиш мумкин эмас. Агар ҳужжат ноқонуний қабул қилинган бўлса, фақат суд томонидан ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин.

Ердан ихтиёрий воз кечиш мулкдорнинг нотариал тасдиқланадиган аризасига асосан амалга оширилади. Энди бунинг учун ҳоким қарорини қабул қилиш талаб этилмайди.

Юридик шахс тугатилганда унинг қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкасига бўлган ҳуқуқлари бекор қилинмайди ва ер давлат захирасига қайтариб олинмайди. Мазкур ерлар тугатилаётган юридик шахсининг муассисларига ўтади.

“Ҳабеас корпус” институти доирасида суриштирувчи ва терговчининг мол-мулкни хатлаш билан боғлиқ қарорларини судда кўриб чиқиш тартибини жорий этилди.

Хусусий мулк ҳуқуқини бузганлик учун маъмурий ва жиноий жавобгарликка тортиш учун



асос бўладиган ҳолатлар белгилаб берилди. Шу жумладан, эндиликда хусусий мулк объекти ва у жойлашган ҳудудга мулкдорнинг рухсатсиз кириш учун жинойий жавобгарликка тортишгача бўлган чоралар қўлланиши мумкин.

Эндиликда мулкдор ёки унинг вакили ўз мулкни ҳар қандай тажовуздан ҳуқуқни бузишга мутаносиб равишда ва ҳуқуқ бузилишининг олдини олиш учун зарур ҳаракатлар доирасида мустақил ҳимоя қилиш ҳуқуқига эга бўлади.

Турар жойга нисбатан мулкдор билан қариндошлик алоқаларига эга бўлмаган шахсларни ушбу турар жойдан доимий рўйхатдан чиқариш учун уларнинг розилигини олиш талаб этилмайди.

2023 йил 1 январдан “Кадастр ва кўчмас мулкларни рўйхатдан ўтказиш интеграцион ахборот тизими” (UZKAD) кўчмас мулкка оид ягона ахборот базаси ҳисобланади. Бунда тизимдаги маълумотларнинг ҳақиқийлиги ва ишончлилиги давлат томонидан қафолатланади.

Агар турар жой UZKAD тизимидаги нотўғри маълумотларга ишониб харид қилинган бўлса, 3 йилдан кейин сотиб олувчидан (инсофли эгалловчи) ушбу уйни талаб қилиб олиш мумкин эмас. Дастлабки мулкдорга етказилган зарар давлат томонидан қопланиб, кейинчалик айбдордан ундирилади.

Ҳукумат ва вилоятлар ҳокимликлари ҳузуридаги “снос” жамғармалари Жисмоний ва юридик шахсларга етказилган мулккий зарарларни компенсация қилиш бўйича республика ва ҳудудий мақсадли жамғармаларга (компенсация жамғармалари) айлантирилди.

Аҳоли ва тадбиркорларга етказилган қуйидаги зарарлар компенсация жамғармаларидан тўлаб берилади:

давлат органи, мансабдор шахс, хусусан, суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суднинг қонунга хилоф ҳаракатлари натижасида мулкдорга етказилган, суд қарори билан аниқланган зарар;

кўчмас мулк объектларига бўлган ҳуқуқларнинг давлат реестрига ноқонуний ёки ҳақиқатга тўғри келмайдиган маълумотларнинг киритилиши натижасида унга ишониб ҳаракат қилган шахсларга етказилган зарар;

турар жой инсофли эгалловчидан талаб қилиб олинмаслиги натижасида унинг ҳақиқий эгасига етказилган зарар.

Судларда фуқароларга нисбатан мулккий даъволар киритишда давлат божи тўлашдан озод қилинган давлат органлари сони қисқартирилади, фуқаролар эса ўз мулкни ўзганинг ноқонуний эгаллигидан талаб қилиб олиш тўғрисидаги даъволари бўйича давлат божидан озод қилинади.

Адлия вазирлигига эса юқорида келтирилган янги тартибларни назарда тутувчи “Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг қафолатлари тўғрисида”ги Қонуннинг янги таҳририни ишлаб чиқиш вазифаси юклатилди.[5]

Мазкур Фармонда Мол-мулкка эгалик қилиш ҳуқуқини вужудга келтирувчи муддатларни қайта кўриб чиқиш вазифалари белгиланган. Шу борада Ўзбекистон қонунчилигини ҳорижий амалиётлар асосида қайта кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ, Ўзбекистон Фуқаролик кодексининг 187-моддасида-Эгалик қилиш ҳуқуқини вужудга келтирувчи муддат қуйидагича белгиланган;

"Мулкдор бўлмаган, лекин кўчмас мол-мулкка ўн беш йил давомида ёки бошқа мол-мулкка беш йил давомида ўзиники каби ҳалол, ошқора ва узлуксиз эгалик қилган шахс бу мол-мулкка мулк ҳуқуқини олади (эгалик қилиш ҳуқуқини вужудга келтирувчи муддат)"[6]. Фуқаролик ҳуқуқи бўйича Россиялик олим Лоренц Дмитрий Владимирович ўз мақоласида Европа давлатларининг қонунчилигидан қуйидагича мисол келтирган;

кўчмас мулкка виждонан эгалик қилган шахсларга эгалик муддати-5 йил (Болгария қонунчилиги) ва Португалияда (ФК-1295-модда). Италия(ФК-1159-модда), Украина(ФК-344-модда), Чехия ва Швейцария давлатларининг қонунчилигида 10 йил муддат белгиланганлиги таъкидлаган.[7]

Қозоғистон Республикасининг Фуқаролик кодексининг 240-моддасида- Мулк эгаси бўлмаган, лекин виждонан, очик ва доимий равишда ўзининг кўчмас мулкига етти йил ёки камида беш йил бошқа мол-мулкка эгалик қилувчи фуқаро ёки юридик шахс ушбу мулкка эгалик ҳуқуқига эга бўлади деб кўрсатилган[8].

Ўзбекистон Фуқаролик кодексининг 187-моддасига-"Мулкдор бўлмаган, лекин кўчмас мол-мулкка етти йил давомида ёки бошқа мол-мулкка беш йил давомида ўзиники каби



ҳалол, ошқора ва узлуксиз эгалик қилган шахс бу мол-мулкка мулк ҳуқуқини олади” деб ўзгартириш керак деб ҳисоблаймиз.

Бу ўзгартириш натижасида кўплаб узок муддатдан бери ўз мулкни қонунни англамаган ва бошқа (ўзга мулкни эгалламаган ҳолда) сабабларга кўра эгалик ҳуқуқи олмаган мулкдорларни эгалик ҳуқуқини олишига, ҳамда, шу йўсиндаги мол-мулкни ўта узок бўлмаган муддатда расмийлаштиришга омил бўлади.

**Фойданилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси <http://test.lex.uz/docs/20596>.
2. ЎРҚ-336-сонли "Хусусий мулкни химоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. <http://lex.uz/docs/2055680>
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. <http://test.lex.uz/docs/20596>
4. ЎРҚ-336-сонли Қонун. <http://lex.uz/docs/2055680>
5. Ўзбекистон Республикаси президентининг ПФ-198-сонли Фармони. <http://lex.uz//ru/docs/6171343>.
6. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. <http://test.lex.uz/docs/111189>.
7. Лоренц Д. В. Срок приобретательной давности в Модельных правилах европейского частного права. <https://cyberleninka.ru/article/n/srok-priobretatelnoy-davnosti-v-modelnyh-pravilah-evropeyskogo-chastnogo-prava>.
8. Қозоғистон Республикаси Фуқаролик кодекси. [https://kodeksy-kz.com/ka/grazhdanskij\\_kodeks/240.htm](https://kodeksy-kz.com/ka/grazhdanskij_kodeks/240.htm).



## ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИНИНГ МУЛКИЙ МАНФААТДОРЛИГИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ

Джалилов Фуркат Закирович,  
Тошкент давлат юридик университети  
мустақил изланувчиси  
E-mail: Fbi774@mail.ru

**Аннотация:** Ушбу мақолада айрим хорижий мамлакатлар жиноят қонунчилигида давлат хизматчисининг мулкӣ манфаатдорлиги билан боғлиқ жиноятлар учун жавобгарлик масалалари атрофлича таҳлил қилинган. Бунда таҳлил қилинаётган жиноят бўйича хорижий давлатлар қонунчилиги қиёсий ўрганилган, уларнинг ижобий жиҳатлари асосида миллий қонунчиликни такомиллаштириш юзасидан асосли таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** давлат хизматчиси, ҳақ бериш-олиш, пора эвазига оғдириш, пора олиш-бериш, моддий ҳақ бериш, судхўрлик, ҳада, совға, имтиёз.

Ҳозирги даврда ҳуқуқий тадқиқотларда қиёслаш методидан фойдаланиш чет мамлакатларда амалда бўлган тегишли ўхшаш қонунлар таҳлилининг энг самарали усулларида ҳисобланади. Иқтисодий ва ижтимоий ривожланишнинг аниқ хусусиятларини, Ўзбекистонда жиноятчиликка қарши кураш борасида мавжуд тажриба ва анъаналарни ҳисобга олганда, хорижий мамлакатларнинг қонунларидан тўғридан-тўғри нусха кўчириш бесамара фаолиятдир. Айни пайтда жиноятчиликка қарши кураш борасидаги хориж тажрибасини ва чет эл қонунчилигини яқин ўтмишдаги каби эътибордан соқит этиш ҳам ўринли бўлмади [1]. Таниқли француз юристи Марк Ансель қайд этганидек, хорижий тажрибани ўрганиш “юрист қаршисида янги уфқлар очади, унга ўз мамлакатининг ҳуқуқини яхшироқ англаб етиш имконини беради, зеро ушбу ҳуқуқнинг ўзига хос жиҳатлари бошқа тизимлар билан таққослаганда, айниқса, бўртиб намоён бўлади. Таққослаш юристини фақат ўз ҳуқуқини ҳатто аъло даражада билган ҳолда ҳам олиш мумкин бўлмаган ғоялар ва далиллар билан қуроллантиришга қодир” [2].

1924 йилги иттифоқ шартномаси денонсация қилиниши натижасида Совет Иттифоқи парчаланиши муносабати билан кўпгина тадқиқотчилар учун чет эл қонунчилигини таҳлил қилишда, энг аввало, собиқ иттифоқдош республикалар қонунчилигига эътиборни қаратиш одат тусини олди. Зотан, мазкур қонунчиликда, бир томондан, жиноий жавобгарлик асослари ва принциплари тўғрисидаги, жиноят деб топиладиган қилмишлар доирасини, уларни содир этганлик учун жазо турлари ва чораларини белгилаш тўғрисидаги масалаларни ечишда шўро даври қонунчилигига хос бўлган ўхшашлик табиий равишда сақланиб қолган, бошқа томондан эса, унда республикаларнинг халқаро ҳуқуқ субъектлари сифатидаги мустақиллиги хусусияти билан белгиланган ўзига хос жиҳатлар ҳам табиий равишда вужудга келган. Шу сабабдан, бугунги кунда МДХга аъзо давлатларнинг жиноят қонунчилигида бизни кизиқтираётган муаммо ҳам ўзининг худди шундай икки ёқламалиги билан ажралиб туради.

“Ҳақ бериш” тушунчаси деярли қўлланилмаган Ўзбекистон жиноят қонунидан фарқли равишда, МДХ таркибига кирган давлатлар жиноят қонунларида бу тушунчадан анча кенг фойдаланилган. Масалан, 1992 йилги Эстония Республикасининг ЖКда “ҳақ бериш” атамаси нафақат салбий (унинг қонунга хилофлиги маъносида), балки ижобий маънода ҳам қўлланилган. Ушбу кодекснинг 279-моддасига мувофиқ, “Тасвирий санъат асарининг асл нусхасини олиб сотганлик учун, шунингдек, аудиовизуал асардан ва асар фонограммасидан шахсий эҳтиёжларда фойдаланганлик учун қонунда назарда тутилган ҳақни тўлашдан бўйин товлаш” [3] жиноий жазога лойиқдир.

Ҳақ бериш-олишнинг жиноят ҳуқуқига хос бўлган ғайриқонуний жиҳатларига келсак, уларни МДХга аъзо давлатлар жиноят қонунларида тартибга солишга нисбатан ёндашувлар бир хил эмас.

Биринчидан, шуни айтиб ўтиш лозимки, “ҳақ бериш” ибораси турли кўринишларда ва турли жиноятларга татбиқан Қозоғистон, Украина, Эстония, Беларусь Республикасининг жиноят кодексларида қўлланилган. Латвия жиноят қонунда “ҳақ бериш” ибораси ишлатилмасдан, “мулкӣ неъматларни руҳсат этилмаган тарзда қабул қилиш” учун жиноий



жавобгарлик назарда тутилган (Латвия ЖКнинг 198-моддаси) [4]. Айни пайтда, мазкур жиноят қонунида порахўрлик (320–323-моддалар) ва тижорат мақсадларида пора эвазига оғдириш (199-модда) каби мустақил таркибли жиноятлар учун жавобгарлик белгиланган. Ҳақ бериш ибораси Озарбайжон Республикасининг ЖКда ҳам мавжуд эмас: мазкур кодексда Ўзбекистон ЖКга ўхшаш тарзда пора эвазига оғдириш (299-модда) ва пора олиш-бериш (311–312-моддалар) [5] каби жиноятларни тартибга солиш билан кифояланган.

Иккинчидан, ғайриқонуний ҳақ олиш-бериш билан боғлиқ бўлган жиноятларнинг одатдаги турлари (пора олиш-бериш, тижорат мақсадларида пора эвазига оғдириш, мусобақалар ва танловларнинг иштирокчилари ва ташкилотчиларини пора эвазига оғдириш) учун жиноий жавобгарлик белгилаш билан бир қаторда, Беларусь Республикасининг ЖКда – фақат давлат аппаратининг мансабдор шахс бўлмаган хизматчиси томонидан ғайриқонуний ҳақ олиш учун [6], Украина ЖКда эса – давлат ёки жамоат ўқув юртларида ғайриқонуний ҳақ тўлашни талаб қилиш учун (183-модда), давлат ёки жамоат соғлиқни сақлаш муассасаларида тиббий ёрдам кўрсатиш учун ҳақ тўлашни ғайриқонуний тарзда талаб қилиш учун (184-модда) [7] жиноий жавобгарлик назарда тутилган. Эстония ЖКда, порахўрлик учун жиноий жавобгарликдан ташқари, коррупцион қилмиш учун жавобгарлик назарда тутилган. Бу ерда мазкур жиноий қилмишга “коррупциявий даромад олиш мақсадида ёки бошқа ғараз ниятида асосиз ёки ғайриқонуний қарорлар қабул қилиш ёхуд шундай мақсадда асосиз ғайриқонуний ҳаракатларни бажариш ёки асосланган қонуний қарорлар қабул қилмаслик, шунингдек мансабдор шахснинг ўз хизмат мавқеидан фойдаланган ҳолда асосли қонуний ҳаракатларни бажармаслиги” деб таъриф берилган (164.2-модда) [3]. Тожикистон ЖКда порахўрликни тартибга солиш доирасида алоҳида моддада (324-модда) товламачилик йўли билан ҳақ беришни талаб қилиш учун ҳам жиноий жавобгарлик назарда тутилган [8] (маълумки, Ўзбекистон ЖКда худди шундай жиноят учун жавобгарлик 214-моддада белгиланган). Айни пайтда, Тожикистон ЖКда хизматчини пора эвазига оғдириш учун жиноий жавобгарликни белгиланган (325-модда) ва шу муносабат билан “моддий ҳақ бериш” иборасини қўлланилган. Ушбу моддага кўра, хизматчини пора эвазига оғдириш деганда, мулк шаклидан қатъи назар мансабдор шахс бўлмаган корхона хизматчисига ҳақ эвазига оғдираётган шахс манфаатини кўзлаб қонунга хилоф ҳаракатни амалга оширганлиги учун моддий ҳақ ёки мулк фойдани, бериш тушунилади.

Шундай қилиб, чет эл мамлакатларининг жиноят қонунчилигини ғайриқонуний ҳақ бериш-олиш муаммоси унда қай даражада акс эттирилгани нуқтаи назаридан танишиш бир қатор ҳулосалар чиқариш имконини беради.

Биринчидан, ҳақ бериш-олиш тушунчаси чет эл мамлакатлари жиноят қонунларининг аксариятларида белгиланган. Боз устига, баъзи ҳолларда мазкур тушунча билан ифодаланган ҳодиса у ёки бу жиноят таркибининг қилмишни тавсифловчи белгиларидан бири сифатидагина эмас, балки ўз-ўзича ҳам жиноят қонунига мувофиқ жазога лойиқ деб эълон қилинади. Ғайриқонуний ҳақ бериш-олишнинг турли жиҳатларини акс эттирувчи бошқа атамалардан фойдаланилганда, қонун чиқарувчининг эътибори асосан ҳаракатнинг (ҳаракатсизликнинг) мотивларини эмас, балки унинг содир этилиши факти (пора эвазига оғдириш, товон пули талаб қилиш ва ҳ.к.)ни жиноят қонунинида қайд этишга қаратилади.

Иккинчидан, баъзи бир истисно ҳолатларни ҳисобга олмаганда, ғайриқонуний ҳақ бериш-олиш билан боғлиқ жиноятлар доирасидаги фарқлар (агар улар мавжуд бўлса) принципиал масалалар билан эмас, балки у ёки бу давлат ҳуқуқий тизимининг хусусиятлари билан белгиланади. Шу муносабат билан ғайриқонуний ҳақ бериш-олишни жиноят қонунчилигида акс эттиришнинг уч асосий усулини қайд этиш мумкин:

а) ғайриқонуний ҳақ бериш-олишни фақат Махсус қисм нормаларида (мустақил ҳодиса сифатида ва содир этилган қилмиш учун жазони оғирлаштирувчи белгилардан бири сифатида) тартибга солиш орқали;

б) ғайриқонуний ҳақ бериш-олишни жиноят қонунининг ҳам Умумий қисмида (қоида тариқасида, жавобгарликни (жазони) оғирлаштирувчи ҳолатлар қаторида), ҳам Махсус қисмида тартибга солиш орқали;

в) ғайриқонуний ҳақ бериш-олишни Махсус қисм нормаларида тартибга солиш ва айни пайтда жазо тайинлаш пайтида ғайриқонуний ҳақ бериш-олиш билан боғлиқ жиноятни содир этиш фактини ҳисобга олиш имконияти учун умумий ҳуқуқий асосни мустаҳкамлаш орқали.



Учинчидан, “ҳақ бериш-олиш” атамасини бевосита ишлатувчи ёки уни бошқа тушунчалар билан алмаштирувчи жиноят қонунларининг тизимли таҳлили жиноят ҳуқуқида унинг ғайриқонунийлигини белгилашнинг айниқса кўп учрайдиган тўрт вариантини қайд этиш имконини беради:

а) олинаётган ҳақнинг кўрсатилган хизмат (бажарилган иш) билан мувофиқ эмаслигини кўрсатиб ўтиш орқали;

б) ҳақ берилаётган шахснинг иш жойи, эгаллаб турган лавозими, кўрсатилаётган хизматларнинг хусусияти ва ҳоказолар билан белгиланадиган алоҳида ҳуқуқий мақоми муносабати билан (белгиланган миқдордан ортиқ ёки ҳар қандай миқдорда) ҳақ олишга йўл қўйилмаслигини кўрсатиб ўтиш орқали;

в) қонун билан тақиқлаб қўйилган, содир этилиши натижасида ҳақ олинадиган қилмишларни кўрсатиб ўтиш орқали;

г) юқорида зикр этилган уч вариантни бирлаштириш орқали.

Тўртинчидан, жиноят-ҳуқуқий тақиқни унинг асосий адресати идрок этишининг психологик эффеқтини ҳисобга олишни ўз ичига олувчи жиноят-ҳуқуқий тартибга солишнинг самарадорлиги назарияси нуқтаи назаридан, ғайриқонуний ҳақ бериш-олиш тўғрисидаги нормалар, таъбир жоиз бўлса, “ҳаётда юз бериши мумкин бўлган барча ҳолатлар учун” ва маъноси фақат мутахассисларга тушунарли бўлган атама ёрдамида (масалан, “мансабдор шахсга пора бериш”) эмас, балки ҳаётнинг аниқ вазиятларига ва оддий фуқароларнинг ҳуқуқий онги даражасига татбиқан таърифланувчи хорижий тажриба диққатга сазовордир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Волженкин Б.В. Экономические преступления. – СПб., 1999. – С. 246.
2. Ансель М. Метдологические проблемы сравнительного права // Очерки сравнительного права. – М., 1991. – С. 38.
3. Уголовный кодекс Эстонской Республики. – СПб., 2001. – С. 252.
4. Уголовный кодекс Латвийской Республики. – СПб., 2001. – С. 202–203.
5. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. – СПб., 2001. – С. 306–307, 317–319.
6. Уголовный кодекс Республики Беларусь. – Минск, 1999. – С. 251.
7. Уголовный кодекс Украины. – СПб., 2001. – С. 159–160.
8. Уголовный кодекс Республики Таджикистан. – СПб., 2001. – С. 334–336.



## КАСБИЙ МАЖБУРИЯТГА ЛОҚАЙДЛИК: ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАР

Ш.Ф.Файзуллаев

Сурхондарё вилояти ички ишлар бошқармаси,  
Олтинсой тумани ички ишлар бўлими ходими,

**АННОТАЦИЯ:** Мақолада касбий мажбуриятга лоқайдлик ва ўз вазифаларини бажармасликнинг ҳуқуқий тартибга солишнинг ўзига хос йўналишлари, касб билан боғлиқ жиноятларни профилактика қилиш, касб юзасидан вазифаларни бажаришда инсон ҳаётига ёки соғлиғига зарар етказилишини олдини олишнинг самарали чора-тадбирлари қаламга олинган.

**Ключевые слова:** касбий мажбурият, ҳуқуқий маданият, лоқайдлик, ҳуқуқ, профилактика, инсон ҳаёти, маъмурий жавобгарлик.

Жамиятда ижтимоий муносабатлар маълумки, турли хил ижти-мой қимматликлари билан, ҳаётий кадр қиммати, маънавий бойлиги ва моддий аҳволи, меҳнат ёки бошқа ютуқлари билан ўлчанади. Худди шундай ижтимоий муносабатларга ёхуд икки объектли деб ном олган ёки ундан ортиқ ижтимоий муносабатларга қаратилиши мумкин.

Жаҳонда касбий мажбуриятга лоқайдлик ва уни бажармаслик, уни жиноий-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатдан ҳуқуқий тартибга солишнинг ўзига хос йўналишларини аниқлаш асосида мазкур соҳани такомиллаштириш, миллий қонунчиликни халқаро стандартларга мослаштириш ва бу борада давлатлараро ҳамкорликни кучайтириш тенденцияси кузатилмоқда, жумладан, касб юзасидан вазифаларини бажармаслик жиноятини содир этган шахснинг криминологик тавсифини ишлаб чиқиш, касб билан боғлиқ жиноятларни профилактика қилиш, касб юзасидан вазифаларни бажаришда инсон ҳаётига ёки соғлиғига зарар етказилишини олдини олишнинг самарали чора-тадбирларини ишлаб чиқиш, мазкур турдаги жиноятларни содир этишда айбдор бўлган шахсларга адолатли жазо тайинлаш амалиётини илмий-ҳуқуқий ўрганиш юзасидан тадқиқотлар ўтказишга алоҳида аҳамият берилмоқда.

Касбий мажбуриятларни бажармаслик жиноятининг ижтимоий хавфлиги айбдорнинг ўз касбига, унга юклатилган касб мажбуриятларига нисбатан масъулиятсизлик, эҳтиётсизлик билан ёндашиши натижасида шахс, жамият ва давлат манфаатларига путур етишида намоён бўлади. Чунончи, ЖК 116-моддаси бўйича республика судларида кўрилган 200 та жиноят иши материаллари ўрганилганда, ушбу жиноят асосан тиббиёт ходимлари (94%) томонидан содир этилганлиги кўрсатилган.

Жаҳонда шахснинг ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилиш, уларга тегишли ёрдам кўрсатиш тизимини такомиллаштириш, шунингдек, хавф остида қолган ёки ёрдамга муҳтож шахсга ёрдам бериш мажбурияти (касбий ва бошқа нуктаи назардан)ни қонуний жиҳатдан мустаҳкамлаш, ҳаёти ёки соғлиғи хавф остида қолган шахсга ёрдам кўрсатмаслик учун аниқ жавобгарлик чораларини белгилаш мазкур соҳада чуқур тадқиқотларни олиб боришни тақозо қилмоқда. Ҳаёти ва соғлиғи хавф остида бўлган шахсга ёрдам бермаслик билан боғлиқ жиноятларни тўғри квалификация қилиш ва жиноий қилмишга нисбатан адолатли жазо белгилаш, мазкур жиноятларнинг сабаблари ва шарт-шароитларини аниқлаш, айбдор шахсини таҳлил қилиш мақсадида хавф остида қолдиришнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ҳар йили ўртacha «АҚШда 100 минг, Буюк Британияда 70 минг, Италияда 50 минг, Германияда 25 минг, Австралияда 18 минг, Венгрияда 10 минг киши тиббиёт ходимларининг ўз вазифаларини бажармаганлиги ёки лозим даражада бажармаганлиги оқибатида вафот этади.

Кишиларни дарҳол маънавий етук бўлишга мажбурлаш ва фақат ҳаракатсизлик учун жазо белгилаш йўли билан ўз ҳамфуқароларига нисбатан бурчлилиқ ҳиссини тарбиялаш мумкин эмас. Уни ривожлантириш учун замин аста-секин яратилади. Бундай жиноий жавобгарликни белгилашнинг самараси аввалига тақиқланган ҳаракатсизликни содир этиш ҳоллари маълум даражада камайишида ифодаланиши мумкин. Муҳими шундаки, фуқаролар бундай ҳаракатни ғайриқонуний ва жамиятда мутлақо номақбул деб ҳисоблай бошлайди. Шу маънода айтиш мумкинки, жиноят-ҳуқуқий чораларнинг самарадорлиги



тегишли нормаларни қўллаш амалиёти билан белгиланади, бироқ у доим ҳам дарҳол ва тўлиқ намоён бўлавермайди, баъзан статистика у ёки бу таъсир чорасининг мақсадга мувофиқлигини намоёиш этгунга қадар норма кўп карра ўзгариши мумкин. Шундай қилиб, ҳар қандай одамга ёрдам кўрсатмаганлик учун жиноий жавобгарликни жорий этиш йўли билан фуқароларни бир-бирига ҳурмат ва қонунни онгли равишда ижро этиш руҳида маънавий тарбиялаш амалга оширилади.

Ходимлар касбий фаолиятининг ижтимоий мазмун ва моҳияти фуқароларга маълум бир хизмат турларини кўрсатиш, уларни бошқариш ва унинг кўрсатилиши устидан назоратни амалга оширишдан иборатдир. Муайян соҳа ходимлари фаолиятининг асосий мақсади фаолият туридан келиб чиққан ҳолда инсон ҳаётини сақлаш, унинг соғлиғи ҳолатини яхшилаш, шахс дахлсизлигини ва хавфсизлигини таъминлаш кабилардан иборат экан, касб юзасидан ўз вазифаларини лозим даражада бажармасликда ифодаланувчи қилмишнинг жиноийлиги шахс ҳаёти, соғлиғи, дахлсизлигига зиён етказиш билан боғлиқ эканлиги табиий бир ҳолдир.

Мустақилликдан кейин қабул қилинган жиноят қонунида бу борадаги тарихий тажриба ҳисобга олинган ҳолда касб юзасидан ўз вазифаларини лозим даражада бажармаганлик учун жиноий жавобгарлик белгиланган алоҳида ўзига хос хусусиятларга эга бўлган универсал норма ишлаб чиқилган. Бу, ўз навбатида, барча касб эгаларининг ўз вазифасини лозим даражада бажармаганликлари натижасида муайян оқибат рўй берса, жиноий жавобгарликка тортилишлари мумкин ва жиноят қонунида аналогияга йўл қўйилмаслиги муҳим аҳамият касб этиши асослантирилган.

Амалдаги жиноят қонунини ўрганиш зиммасига муайян вазифалар юклатилган ходимларнинг ҳаёт ва соғлиққа ижтимоий хавфли тажовузлари билан боғлиқ жиддий муаммолар мавжудлигини кўрсатди. Айни ҳол ижтимоий муносабатлар ранг-баранглигини, илмий-техника тараққиётини, халқаро ва миллий қонунчилик ҳамда хорижий мамлакатлар тажрибасини эътиборга олган ҳолда жиноят қонуни нормаларини такомиллаштириш зарурлигидан далолат беради.

Касбий мажбуриятга лоқайдлик ва уни бажармаслик жиноятининг шарт-шароитлари сифатида юқори турувчи органлар томонидан назоратнинг сустлиги, жазонинг муқаррарлиги лозим даражада таъминланмаслиги, ходимларнинг ўзаро айбини яшириши ва ш.к.ларни киритишимиз мумкин. Шунингдек, амалдаги қонунчиликдаги айрим камчиликлар, баъзи ижтимоий муносабатларнинг ҳуқуқий жиҳатдан етарли даражада тартибга солинмаганлиги ҳам касбий мажбуриятга лоқайдлик ва вазифаларни бажармаслик жиноятининг содир этилишига туртки бўлмоқда.

Касбий мажбуриятга лоқайдлик ва вазифаларни бажармаслик жиноятининг содир этилишининг асосий сабаб ва шарт-шароитларидан бири сифатида ҳуқуқий билимнинг етишмаслиги, ҳуқуқий онг ва саводхонлик даражасининг пастлиги ҳам алоҳида кўрсатилган.

Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 22 октябрдаги ЎРҚ–503-сонли «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонуни асосида Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси ҳаёти ёки соғлиғи учун хавфли ҳолатда бўлган шахсга тиббиёт ташкилотларида қонунга ёки махсус қоидаларга мувофиқ шошилиш ва (ёки) кечиктириб бўлмайдиган тиббий ёрдам кўрсатиши керак бўлган шахс томонидан шундай ёрдам кўрсатишни асосиз равишда рад этиш учун маъмурий жавобгарликни назарда тутувчи 591 -модда билан тўлдирилиши муҳим профилактик аҳамиятга эга.

Касбий мажбуриятга лоқайдлик ва вазифаларни бажармаслик жиноятининг олдини олиш бўйича умумий чора-тадбирлар сифатида қуйидагилар кўрсатиб ўтилган:

аҳолининг ҳуқуқий маданиятини ошириш; иккинчидан, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг юқорида зикр этилган жиноятларга қарши курашиш ҳақида оммавий ахборот воситалари орқали янада фаол ахборот бериш;

мазкур соҳадаги илмий тадқиқотларни фаоллаштириш;

фуқароларга шундай жиноят содир этилган тақдирда тегишли тармоқда назоратни амалга оширувчи давлат органларига мурожаат этиш ҳуқуқларини кўрсатиб беришда оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш;

тегишли касб соҳалари ўртасида уларнинг касбий малака ва маҳоратини ошириб боришга қаратилган семинар-тренинг ва давра суҳбатлари ташкил этиш.



Касбий мажбуриятга лоқайдлик ва вазифаларни бажармаслик жиноятининг криминологик таҳлили ушбу жиноятнинг асосан тиббиёт ходимлари томонидан содир этилишини инобатга олган ҳолда мазкур касбнинг ўзига хос хусусиятларини эътиборга олиб, юқоридаги умумий ва махсус профилактика тадбирларини амалга оширишни тақозо этади.

Шу жиҳатдан ҳам ушбу таклиф ва мулоҳазалар касбий мажбуриятга лоқайдлик ва вазифаларни бажармаслик жиноятини олдини олишда:

тиббиёт ходимларининг жавобгарлигини белгилаш бўйича амалдаги жиноят қонунчилигида тиббиёт ходимлари ўз касбини бажармаслик ёки лозим даражада бажармаслик учун алоҳида жиноят таркибини белгилаш орқали бу каби қилмишлар учун жавобгарлик муқаррарлигини таъминлаш;

тиббиёт ходимларининг ижтимоий ҳимоясини ошириш;

тиббиёт соҳасидаги мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги жиноят содир этилишига йўл қўядиган бўшлиқларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш;

бутурдаги жиноятларнинг содир этилиш механизмини ҳамда жиноят жабрланувчиларининг шахсини аниқлаштиришга хизмат қилади.

Хулоса, касбий мажбуриятга лоқайдлик ва вазифаларни бажармаслик билан боғлиқ жиноятларга барҳам беришга оид жиноят-ҳуқуқий ва процессуал нормаларни тегишли равишда қайта кўриб чиқиш, касбий мажбуриятга лоқайдлик ва вазифаларни бажармаслик жиноятига қарши курашнинг маъмурий-ҳуқуқий механизмларини, шу жумладан назоратни кучайтириш, хусусан, касб юзасидан ўз вазифаларини лозим даражада бажариш билан боғлиқ назоратни амалга оширувчи давлат органлари фаолиятини такомиллаштириш мақсадга мувофиқдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Хайдаров Ш.Д. Касб юзасидан ўз вахифаларини лозим даражада бажармаслик: жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари . 12.00.08 – Жиноят ҳуқуқи, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш. Криминология. Жиноят-ижроия ҳуқуқи Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ Тошкент – 2019

2. Хайдаров Ш.Д. Касб юзасидан ўз вазифаларини лозим даражада бажармаслик учун жиноий жавобгарлик. Монография – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2012. – 170 б

3. Давлетмуратов С.Р. Хавф остида қолдиришнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари. 12.00.08 – Жиноят ҳуқуқи. Криминология. Жиноят-ижроия ҳуқуқи Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020.

4. Аснис, А.Я. Уголовная ответственность за служебные преступления в России: проблемы законодательного закрепления и правоприменения. диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.08, доктор юридических наук.

5. Загородников Н.И. Объект преступления: от идеологизации содержания к естественному понятию // Проблемы уголовной политики и уголовного права. Межвузовский сборник научных трудов. М.: МВШМ МВД России, 2004. С. 16-18.



## КОРРУПЦИЯВИЙ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА УЛАРНИНГ КРИМИНАЛИЗАЦИЯ ҚИЛИНИШИНING ЗАРУРАТИ

Абдурахматова Камола Муроджон қизи,  
Тошкент шаҳар Яккасарой туман прокурори ёрдамчиси  
E-mail: magic\_star@bk.ru

**Аннотация:** Мақолада муаллиф томонидан коррупциявий жиноятлар тушунчаси ва уларнинг криминализация қилинишининг зарурати ёритилган. Шунингдек, коррупция инсоният каби узок тарихга эга эканлиги, унинг ўзгарувчанлиги, яъни коррупция кўрсаткичлари турли вақтларда ортиб бориши ёки аксинча камайиб бориши кўрсатиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** коррупция, порахўрлик, халқаро ташкилотлар, мансабдор шахслар, “оқ ёқалилар” жинояти.

Коррупция инсоният каби узок тарихга эга. Уни содир этилишига таъсир этувчи омилларга боғлиқ ҳолда унинг кўрсаткичлари турли вақтларда кўпайиб ёки, аксинча, камайиб турган. Айниқса, ҳозирги бозор муносабатларига ўтиш босқичида коррупция жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий, маънавий ҳаётига хавф солади, қолаверса, мамлакат тараққиётига тўсиқ бўлади.

“Коррупция” атамасининг этимологик жиҳати хусусида турли фикрлар мавжуд. Кенг оммалашган биринчи фикр тарафдорларига кўра, этимологик жиҳатдан “коррупция” атамаси латинча “*corruptio*” сўзидан келиб чиққан бўлиб “пора эвазига оғдириш” деган маънони англатади [1]. Баъзилар “коррупция” латинча “*corruptum*” сўзидан келиб чиққан бўлиб “синган, бузилган” маънони билдиради ва шахсий ҳаёт ҳамда корпоратив фойда йўлида жамоат манфаатларига путур етказишни англатади, деб тушунтиради [2]. Баъзи славян тилларида “коррупция” пора маъносида тушунилади: масалан, “*corruptirati*” кесими серб-хорватлар тилида “пора бериб ўз томонига оғдириш, пора бериш” деб таржима қилинади, “*corrupenesku*” сифати эса, чехларнинг тилида “сотилувчи, соткин” маъносини англатади [3], рус тилидаги коррупция – бу пора эвазига сотиб олиш, мансабдор шахсларнинг, сиёсий арбобларнинг сотқинлигидир [4]. Профессор Қ.Р.Абдурасулованинг ҳақли эътироф этишича: “Коррупция” тушунчасига на давлат ва ҳуқуқ назарияси, жиноят ҳуқуқи нуқтаи назаридан шу вақтга қадар аниқ таъриф берилмаган [5]. Бу эса мазкур салбий ҳодисага қарши кураш самарадорлигига маълум даражада таъсир этмоқда.

Халқаро ҳужжатларда биринчи бор коррупция тушунчасига БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 1979 йил 17 декабрда қабул қилинган “Ҳуқуқий тартиботни сақлаш бўйича мансабдор шахсларнинг хулқ-атвор кодекси”да коррупция деганда “... мансабдор шахснинг ҳар қандай шаклдаги мукофот эвазига ўз мансаб ваколатлари доирасида мазкур мукофотни берувчи шахс манфаатларини кўзлаб, лавозим йўриқномаси қоидаларини бузган ҳолда ёки бузмасдан муайян ҳаракатларни бажариши ёки ҳаракатсизлиги” тушунилади дейилган [6]. БМТ Бош Ассамблеясининг 1990 йил Гаванада коррупция муаммоларига бағишлаб ўтказилган минтақалараро семинарида қабул қилинган Давлат хизматчилари учун халқаро хулқ-атвор кодексида “коррупция (оқ ёқалилар жинояти) бу мансабдор шахсларнинг шахсий ёки гуруҳ манфаатини кўзлаб мансабини суиистеъмол қилиш, шунингдек давлат хизматчилари томонидан ўзлари эгаллаб турган хизмат вазифаларидан ғайриқонуний фойдаланиш кўринишларидир”, дейилади. Ушбу таърифда коррупциянинг ўзагини мансаб ваколатларидан ғайриқонуний фойдаланиш ташкил этиши кўрсатилган. БМТнинг Коррупцияга қарши конвенциясида коррупцияга энг қисқа, лекин кенг қамровли таъриф қуйидагича берилган: “Коррупция – бу шахсий наф кўриш мақсадида давлат ҳокимиятини суиистеъмол қилишдир” [7]. Мазкур таърифларда коррупциянинг моҳиятини шахсий бойлик орттириш учун ҳокимият ёки мансаб ваколатидан фойдаланиш ташкил этиши кўрсатилган. Юридик адабиётларда коррупция атамасига ҳуқуқшунос олимларнинг берган таърифлари ҳам ранг-баранг. Масалан, А.И.Долгова коррупция тушунчасига “давлат амалдорлари ёки ўзга хизматчилар пора эвазига оғдирилиши ва шу асосда улар ўз хизмат ваколатларидан шахсий ёки муайян гуруҳ манфаатларида фойдаланиши билан тавсифланувчи ижтимоий ҳодиса”, деб таъриф берган [8]. Н.Ф.Кузнецова коррупция деганда, давлат аппарати ва



нодавлат тузилмаларининг ходимларини пора эвазига оғдиришдан иборат бўлган ижтимоий хавfli ҳодисани тушунади [9].

Маълумки, коррупциянинг негизида ҳокимиятга интилиш ётади. Коррупция уюшган жиноятчиликнинг таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Мансабдор шахслар томонидан порахўрлик, ғараз мақсадларда хизмат мавқеини суиистеъмом қилиш, ўзгалар мулкани талон-торож қилиниши ва ўзлаштирилиши коррупциянинг кўринишларидан биридир. Бундан коррупция порахўрлик доирасидан кенгроқ, у порахўрликдан ташқари ўзи ва бошқалар учун қонунга хилоф равишда имтиёзларни қўлга киритиш мақсадида мансабидан фойдаланиб, содир этиладиган бошқа турдаги жиноятларни ҳам ўз ичига олади, деган хулосага келиш мумкин.

Ижтимоий муносабатларни коррупциявий жиноятлардан муҳофаза қилишда Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси муҳим ўрин тутди. Коррупцияга қарши курашнинг жиноят-ҳуқуқий воситалари тизими – Ўзбекистон Республикаси ЖК Умумий ва Махсус қисмлари нормаларининг тартибга солинган мажмуи ҳисобланади.

ЎЗР ЖК Махсус қисми нормаларини таҳлил қилиб, шуни таъкидлаш мумкинки, унда коррупция хусусиятига эга жиноятлар учун бир қатор моддаларда жавобгарлик белгиланган. БМТнинг Коррупцияга қарши конвенцияси талабларига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида жавобгарлик белгиланган қуйидаги ижтимоий хавfli қилмишлар коррупциявий жиноятлар ҳисобланади: ЖК 167, 171, 184<sup>1</sup>, 205, 206, 208, 210, 211, 212, 213, 214, 236, 301 ва бошқа моддаларда назарда тутилган ижтимоий хавfli қилмишлар.

Юқорида баён этилганлар коррупцион қилмишларни криминализация қилишнинг қуйидаги асослари мавжуд, деган хулосага келиш имконини беради: 1) бу, энг аввало, аниқ юридик таърифи мавжуд бўлмаган ижтимоий ҳодиса, пировард натижада коррупция ҳаракатлари жамият ҳаётининг кундалик меъёрига айланиши оқибатида бутун фуқаролик жамияти ва давлатнинг инқирозига олиб келади; 2) мазкур ҳуқуқбузарлик субъектларининг муайян доираси мавжуд (бу, аввало, давлат хизматидаги мансабдор шахслар, ҳокимият вакиллари ва давлат функцияларини бажариш ваколатига эга бўлган бошқа шахслар, шунингдек хусусий секторда бошқарув функцияларини бажаришга ваколатли бўлган шахслар бўлади); 3) кўрсатилган субъектлар ўз мансаб мавқеидан, ҳокимият ёки мансаб ваколатидан, хизмат лавозимидан, ҳуқуқий мақомидан ва эгаллаган лавозимининг нуфузидан, обрўйдан ғайриқонуний равишда фойдаланадилар; 4) кўрсатилган субъектларнинг мазкур фаолияти шахсий бойиш мақсадида ёки ўзга шахсларнинг манфаатларида ёхуд корпоратив манфаатларда амалга оширилиши мумкин.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Криминология. Учебник. Отв.редактор: М.Х.Рустамбаев. – Ташкент: ТГЮИ, 2008. – С. 219.
2. Зуфаров Р. Порахўрлик- коррупция негизи // Давлат ва ҳуқуқ. – 2000. – № 4. – Б. 41.
3. Абдурасулова Қ., Қурбонов О. Коррупция: Асосий тушунча ва шакллари (рисола). – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009. – Б. 14-15.
4. Егорова Н.Е. Уголовно-правовые формы борьбы с коррупцией в новых экономических условиях. Автореф. дисс. ... канд.юрид.наук. – Саратов, 1996. – С.22.
5. Абдурасулова Қ., Қурбонов О. Коррупция: Асосий тушунча ва шакллари (рисола). – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009. – Б.
6. Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией Генеральной Ассамблеи от 17 декабря 1979 г.).
7. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (Принята резолюцией Генеральной Ассамблеи от 31 октября 2003 г.).
8. Криминология / Под ред. А.И. Долговой. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 68.
9. Криминология / Под ред. Н.Ф. Кузнецовой, Г.М. Миньковского. – М.: МГУ, 1994. – С. 58.

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2022

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000